



Toshkent davlat  
sharqshunoslik universiteti

# XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2025

## “RABI’ AL-ABROR” ASARIDA YUNON FAYLASUFLARINING AXLOQIY QARASHLARI

**Ahrorjon Bahromjon o‘g‘li Oqilov**

1-kurs magistrant

Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: [oqilovahrerjon@gmail.com](mailto:oqilovahrerjon@gmail.com)

Ilmiy rahbar: **Laziz To‘rayev**

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Ph.D), dots,

Doktorantura bo‘limi boshlig‘i

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

E-mail: [laziz\\_torayev@tsuos.uz](mailto:laziz_torayev@tsuos.uz)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3666-6229>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola, “Xorazm faxri”, “Jorulloh”, “Arab va g‘ayri arablar ustozlari” nomlari bilan ulug‘langan “al-Mufasssal”, “al-Kashshof”, “Rabi’ al-abror” kabi qimmatli asarlar muallifi Abul Qosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariyning “Rabi’ al-abror” asaridagi “Yaxshilik va ezgulik, ezgu va solih insonlarni zikr etish”, “Xulq va uning sifati, yaxshilik va yomonlikni zikr etish”, “Axloq, yaxshi va yomon odatlar”, “Ilm, hikmat, adab, kitob va qalam” boblarida keltirilgan yunon faylasuflarining axloqiy qarashlari haqida ma’lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Yaxshilik, yomonlik, burch, vijdon, erkinlik, mas’uliyat, baxt, adolat, ezgu maqsad, ideal, fazilat, yovuzlik, mehr-oqibat, halollik, sadoqat, kamtarlik.

## ETHICAL VIEWS OF GREEK PHILOSOPHERS IN “RABI’ AL-ABROR”

**Ahrorjon Bahromjon o‘g‘li Okilov**

1st-year Master’s student

Specialty: Eastern Philosophy and Culture

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: [oqilovahrerjon@gmail.com](mailto:oqilovahrerjon@gmail.com)

Scientific supervisor: **Laziz Turaev**

Doctor of Philosophy in Historical Sciences, Associate Professor,

Head of the Doctoral Department,

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: [laziz\\_torayev@tsuos.uz](mailto:laziz_torayev@tsuos.uz)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3666-6229>

**Annotation.** This article explores the ethical views of Greek philosophers presented in the work “Rabi’ al-Abror” by Abul Qasim Mahmud ibn Umar al-Zamakhshari, a distinguished scholar honored with the titles “Pride of Khwarazm”, “Neighbor of God”, and “Teacher of Arabs and non-Arabs”, and the author of valuable works such as “al-Mufasssal”, “al-Kashshaf”, and “Rabi’ al-Abror”. The study focuses on the chapters entitled “On Goodness and Virtue, and Mention of Righteous and Pious People”, “On Character and Its Qualities, Mention of Good and Evil”, “On Morality, Good and Bad Habits”, and “On Knowledge, Wisdom, Literature, Books and the Pen”. These sections contain references to the moral concepts of ancient Greek philosophers and their influence on ethical thought within the Islamic intellectual tradition.

**Keywords:** goodness, evil, duty, conscience, freedom, responsibility, happiness, justice, noble purpose, ideal, virtue, wickedness, compassion, honesty, loyalty, humility.

## ЭТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ГРЕЧЕСКИХ ФИЛОСОФОВ В ТРУДЕ «РАБИ’ АЛЬ-АБРАР»

**Ахроржон Бахромжон угли Окилов**

Магистрант 1-го курса,

специальность «Восточная философия и культура»

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: [oqilovahrjorjon@gmail.com](mailto:oqilovahrjorjon@gmail.com)

Научный руководитель: **Лазиз Тураев**

Доктор философии по историческим наукам, доцент (Ph.D), доцент,

Заведующий отдел докторантуры

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: [laziz\\_torayev@tsuos.uz](mailto:laziz_torayev@tsuos.uz)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3666-6229>

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются этические взгляды греческих философов, представленные в труде «Раби’ аль-Абрар» Абул Касима Махмуда ибн Омара Замахшари — великого мыслителя, прославленного как «Гордость Хорезма», «Сосед Бога» и «Учитель арабов и неарабов», автора таких ценных трудов, как «аль-Муфасссал», «аль-Кашишаф» и «Раби’ аль-Абрар». Исследование сосредоточено на главах: «О добродетели и благочестивых людях», «О нраве и его качествах, о добре и зле», «О морали, хороших и плохих привычках» и «О знании, мудрости, литературе, книгах и каламе (письме)». Эти

*разделы содержат сведения о моральных воззрениях древнегреческих философов и их влиянии на этическую мысль в исламской интеллектуальной традиции.*

**Ключевые слова:** Добро, зло, долг, совесть, свобода, ответственность, счастье, справедливость, благородная цель, идеал, добродетель, порок, сострадание, честность, верность, скромность.

## KIRISH

Xorazm diyorida dunyoga kelgan Abul Qosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy o‘zining Qur’on tafsiriga bag‘ishlangan “al-Kashshof fi haqiqi g‘avomidi-t-tanzil va uyuni-l-aqovil fi vujuhi-t-ta’vil” va “Al-Mufasssal fi san’at al-i’rob” va “Asos al-balag‘a” kabi asarlari bilan diniy hamda grammatika olimlari ichida shuhrat qozondi. Mahmud Zamaxshariyning zamon ilm-faniga qo‘shgan hissasi faqatgina din va tilshunoslikka oid asar bilan o‘lchanibgina qolmay, balki olim tomonidan yaratilgan “Atvaq uz-Zahab fi-l-Mavaiz val-Khutab”, “Maqomat az-Zamaxshariy”, “Rabi’ al-abror va nusus ul-axyar” kabi insonning axloqiy tarbiyasini shakllantirish, uning shaxsiy ruhiy kamolotga qarab intilishiga turtki beruvchi asarlar ham olim shuhrati va ilmiy salohiyatiga berilgan baholarga salmoqli ta’sir ko‘rsatdi. Mahmud Zamaxshariyning hozirgacha ma’lum bo‘lgan axloqqa oid qarashlarini ifoda etadigan eng mashhur va hajman katta asari “Rabi’ al-abror va nusus ul-axyar”, ya’ni “Ezgular bahori va yaxshilar bayoni” asaridir. Bu asar Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” ya’ni “Ko‘ngillarning sevgani” asari kabi Zamaxshariy hayotining so‘nggi yillarida hijriy 528 yil (milodiy 1134) o‘zining mashhur “Al-kashshof” asarini yozib tugallagandan so‘ng yozilgan hayotiy tajribadan kelib chiqqan xulosa asar hisoblanadi[1]. “Rabi’ ul-abror” olimning axloq haqida yozgan batafsil asari bo‘lib 98 bobdan iborat. Asarda axloq boblaridan tashqari samo, yulduzlar, chaqmoq, shamol, shabada kabi tabiat; kasalliklar, tib kabi tibbiyot; farishtalar, jinlar shayton kabi metafizik; xafalik, shoshilish kabi inson tabiati va psixologik, hayo, sukut, uzlat kabi ruhiy tarbiyaga bag‘ishlangan boblari mavjud. Asosiy axloqiy urg‘u esa “Yaxshilik va ezgulik, ezgu va solih insonlarni zikr etish” - الخیر والصالح و ذکر الأخیار والصالحاء, “Xulq va uning sifati, yaxshilik va yomonlikni zikr etish” - الخلق وصفاتها و ذکر الحسن و القبح “Axloq,

yaxshi va yomon odatlar” - الأخلاق، والعادات الحسنة والقيحة - “Ilm, hikmat, adab, kitob va qalam” - العلم، والحكمة، والأدب، والكتاب، والقلم - “Faxrlanish, kibrlanish, magʻrurlik va insonning oʻziga maftun boʻlishi” - وإعجاب - والفخر، والكبر، والصلف - “Yolgʻon, soxta guvohlik, tuhmat va riyo” - والرياء - والكذب، والزور، والبهتان، واليأس، والقناعة، والرضا - “Saxiylik, sahovat va erkin (olijanob) insonlarga yaxshilik qilish” - واصطناع - والكرم، والجود، واليأس، والقناعة، والرضا - Nasihat, pand-nasihah va yomon ishlardan qaytarish - والنصيحة، والموعظة، والزجر - عن القبيح، Neʼmat va unga shukr qilish, uni eslab ulugʻlash hamda uni mensimaslik (inkor etish) - النعمة وشكرها، والإشادة بذكرها، وغمطها - الوفاء - Vafo, ahdga sadoqat va vijdon - والوفاء، والرضا - Umidsizlik, qanoat, rozi boʻlish va tavakkal - وحسن العهد، ورعاية الذمم - البوبلاريدا oʻz aksini topgan.

Bizga maʼlumki, yunon falsafiy maktablaridagi unsurlar, xususan, peripatetizm, mayevtika, ilmiy germenevtika anʼanalari musulmon dunyosining ilm faniga hamda renessans jarayoniga katta taʼsir oʻtkazgan. Jumladan, Mahmud Zamaxshariyning “Rabiʼ ul-abror” asarining bir qancha boblarida aynan yunon faylasuflaridan iqtiboslar keltirilib ularning fikrlariga murojaat qilinadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot nazariy, tahliliy va germenevtik yondashuvlar asosida olib borildi. Nazariy yondashuv orqali Abul Qosim Mahmud az-Zamaxshariyning “Rabiʼ ul-abror va nusus ul-axyar” asaridagi axloqiy qarashlari islom falsafasi va axloqshunosligi doirasida oʻrganildi. Tahliliy yondashuv esa asarning mazmuniy va gʻoyaviy qatlamlarini, undagi axloqiy kategoriyalar tizimini va ularning oʻzaro bogʻliqligini aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida faqat Mahmud Zamaxshariyning “Rabiʼ ul-abror va nusus ul-axyor” asari tanlab olindi. Asarning turli nashrlari, arab tilidagi matni oʻrganildi. Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotchilarning Mahmud Zamaxshariy merosi va islom axloq falsafasi haqidagi ilmiy ishlari, maqolalar va dissertatsiyalar yordamchi manbalar sifatida qoʻllanildi. Tadqiqotda tarixiy-taqqoslash, germenevtik, diskursiv, sotsiomadaniy va kontekstual metodlardan foydalanildi.

Ushbu metodlar tanlanishining sababi - “Rabi’ ul-abror” faqat diniy-axloqiy emas, balki ma’naviy, ijtimoiy va madaniy jihatdan boy asar bo‘lgani uchundir. Germenevtik yondashuv asar matnidagi axloqiy timsollar, Qur’oniy ishoralar va falsafiy ma’nolarni tahlil qilishda qo‘llanildi. Kontent-tahlil metodidan asarda ko‘p takrorlanadigan tushunchalar - yaxshilik, yomonlik, fazilat, adolat, vijdon, sadoqat kabi axloqiy kategoriyalarni aniqlash va ularni tizimlashtirishda foydalanildi. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda manbalar yig‘ilib, matn o‘rganishga tayyorlandi; ikkinchi bosqichda asarning axloqiy boblari mazmunan tahlil qilindi; uchinchi bosqichda esa olingan natijalar falsafiy jihatdan umumlashtirilib, asosiy xulosalar ishlab chiqildi.

## **NATIJALAR**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Mahmud Zamaxshariy “Rabi’ ul-abror” asarining asosiy mavzusini axloqqa bag‘ishlagani va o‘rta asrlar Sharq tafakkurida islom omili bilan bir qatorda axloqning asosi sifatida muallifdan muqaddam yashagan donishmandlarning ham qarashlaridan foydalanilgan. Alloma o‘zining e’tiqodi nuqtayi nazaridan yiroqlashmagan holda aqlga muvofiq keladigan shu bilan birga jamiyatni isloh qilish mumkin bo‘lgan har qanday foydali ilmni qo‘llab-quvvatladi. Asarda yunon falsafasida muhim o‘rin tutgan faylasuflar Aflotun, Suqrot, Jolinus (Galen)larning qariyb o‘n besh asrdan keyin ham dolzarbligi va insoniyat uchun asl hikmat eskirmasligini tushuntiradi. Shu bilan bir qatorda haqiqiy bilim din, hudud va zamon tanlamasligini tasdiqlaydi. Asarda tanlangan bob nomlari Mahmud Zamaxshariy nazdida ilm va axloq o‘rtasidagi dialektika mavjud bo‘lib bu e’tiqod bilan qo‘shilib o‘ziga xos triadani hosil qiladi.

## **MUHOKAMA**

Tarixan qaralganda Sharq adabiyoti va ilm-fani qadimdan didaktik janrdagi asarlarga alohida e’tibor qaratgan. Konfutsiyning hikmatlari jamlangan “Lun yuy”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” kabi asarlari bunga misol bo‘ladi. Mahmud Zamaxshariyning “Rabi’ al-abror” asari ham shu asarlar

jumlasidandir. “Rabi’ al-abror” asari والقلم، والكتاب، والأدب، والحكمة، والعلم، ya’ni ilm, hikmat, adab, kitob va qalam bobida Afina akademiyasi asoschisi Aflotun hayotidan quyidagi misolni keltiradi:

قال رجل لأفلاطون: كيف قويت على جمع هذا العلم كله؟  
قال: أفنيت من الزيت في السراج أكثر من الشراب الذي شربته في عمري كله  
[2, 295a]

Tarjimasi:

Bir kishi Aflotundan so‘rabdi: “Qanday qilib shuncha bilim egallagansiz”?  
Aflotun: “Men umr bo‘yi ichgan ichimligimdan ko‘ra sham chirog‘im uchun moyini ko‘proq sarf qilganman” [3].

Yuqoridagi misoldan bir qancha ma’nolarni chiqarish mumkin

*Birinchidan*, Aflotun yunon falsafasining mashhur vakili, “G‘oyalar va soyalar” nazariyasining asoschisi, Afinada shaharning eng aqlli kishisi ta’rifi berilgan Suqrotning shogirdi, ilm-fanda birinchi muallim (Sharqda muallimi al-avval yoki ustodi avval) deb e’tirof etilgan Aristotel (Sharqda Arastu)ning ustози bo‘lgani o‘z-o‘zidan emas, balki bularning barchasi muntazam mehnat asosiy diqqatni ilmga qaratish samarasi sifatida ko‘rsatadi.

*Ikkinchidan*, Mahmud Zamaxshariy XI asr shaxsiyatidan kelib chiqib u davrda ilm olishning mashaqqati, olim maqomiga erishish uchun inson hayotini batamom ilmga bag‘ishlashi zarurligi bu o‘rinda hatto taomlanishdan bilim olishga ko‘proq e’tibor qaratish lozim deb hisoblaydi.

*Uchinchidan*, Aflotundek olimlik darajasiga yetish uchun ilmga qilinadigan moddiy rag‘bat boshqa istalgan jabhadan yuqori turishi shart. Shu jihatdan qaralganda olimlar dunyo-yu davlatga emas, balki ma’naviy ozuqaga ahamiyat beradi, degan nuqtani beradi.

Mahmud Zamaxshariy “Rabi’ al-abror” asarida Aflotun hayotidan yana quyidagi misolni keltiradi:

قيل لأفلاطون لم لا تجتمع الحكمة والمال  
قال: لعزة الكمال

[4, 580b]

Tarjimasi:

Aflotundan so‘rashibdi: “Nega donolik va boylik birlashmaydi”?

U dedi: “Mukammallik hurmati uchun”. [2, 295b]

Yuqoridagi iqtibos Mahmud Zamaxshariy bu iqtibosni o‘zidan bir asr oldin yashagan, ulug‘ alloma, tilshunos, tarixchi Abu Mansur as-Saolibiyning (350-429/961-1037) “At-Tamsil va al-muhozarat” (“Nodir so‘zlar va suhbat”) asaridan keltirgan. Yuqoridagi iqtibosdan kelib chiqqan holda ilm bu mukammallik, tugallik ifodasi sifatida e’zozlanadi. Ilm va boylikni baravar egallamoqchi bo‘lgan inson ikki qayiqda suzmoqchi bo‘lgan dengizchi misolidek bo‘ladi.

Mahmud Zamaxshariy tabib va hakim Jolinusdan ham bir qancha iqtiboslarni keltirib o‘tadi.

الأبوة حق ولده على له يجب لم ولده يعلم لم من أن: أثينة أهل من: جالينوس

[4, 580b]

Tarjimasi:

Jolinus: Afinaliklardan kim o‘g‘liga ilm o‘rgatmasa u otalik haqqini ado etmagan hisoblanadi, (dedi).

Bu misoldan Galen nafaqat bolalarning tarbiyasi, balki otalarning mas’uliyati haqida ham qat’iy mezonlar borligi, uni ado etmagan otalar esa otalarga qilinadigan hurmatga ham munosib emas, otalarning farzanddagi xizmati ularni dunyoga keltirish bilan tugamasligini uqtirdi.

Yana Jolinusdan iqtibos keltiriladi:

جالينوس: إن ابن الوضيع إذا كان أديباً كان نقص أبيه زائداً في مترلته، وإن ابن الشريف إذا كان غير شرف أبيه زائداً في سقوطه أديب كان

[4, 597-b]

Tarjimasi:

Past nasabdan bo‘lgan kishining o‘g‘li odobli bo‘lsa, otasining pastligi uning martabasini yanada yuksaltiradi. Aksincha, aslzoda kishining o‘g‘li odobsiz bo‘lsa, otasining sharafi uning qulashini yanada chuqurlashtiradi.

Bu misol orqali Jolinus agar bir faqir insonning farzandi odobli bo‘lsa, otasi past nasabdan bo‘lganligi uchun barcha uning intilishi bilan erishgan odobidan yanada hurmatlashadi, aksincha, aslzoda odamning farzandi odobsiz bo‘lsa, otasi aslzoda bo‘lgani sababidan yanada behurmat bo‘ladi.

Asarda Suqrot dan bir qancha iqtiboslar keltiriladi:

إذا رأت العامة منازل الخاصة حسدتها، وتمنّت أمثالها؛ فإذا رأت مصارعها بدا لها، واغتبطت: سقراط بحالها

[5,165-b]

Tarjimasi:

Oddiy xalq (omma) zodagonlarning (xoslarning) uylarini ko‘rsa, ularga hasad qiladi va shunga o‘xshash ne‘matlarga ega bo‘lishni orzu qiladi. Ammo ularning halokatini (fojiali oqibatini) ko‘rsa, o‘z holidan mamnun bo‘ladi va o‘zini baxtli deb biladi.

Muallif bu misolni insonning sabrdan uzoqligi, ba’zan esa baxtsizlik deb hisoblangan narsalar aslida ular uchun xayrli va manfaatli ekanligini anglatish uchun o‘quvchilarga taqdim qiladi.

Suqrot yana aytadiki:

سقراط: لا تسوطن النار بالسكين، أي لا تهيج الغضب

[5, 268-b]

Tarjimasi:

Pichoq bilan olovga tegma, ya’ni — g‘azablangan odamni qo‘zg‘atma.

Suqrotning bu hikmati jahl chiqqanda aql ketadi, g‘azablangan inson bilan munosabatda o‘ylab muomala qilish zarurligi, bunday insondan uzoqroq bo‘lish kerakligi haqida ogohlantiradi.

Yana Suqrot dedi:

سقراط: لا تجلس على المكيال. أي لا تكتم الحق

[5, 437-b]

Tarjimasi:

Tarozi ustiga o‘tirma ya’ni haqiqatni yashirma.

Suqrot o‘zining haqgo‘yligi, to‘g‘riso‘zligi bilan mashhur bo‘lgan edi. Mahmud Zamaxshariy uni o‘z asarida zikr etish orqali insonda haqiqatga bo‘lgan munosabatda xushyorlikni shart qilib qo‘yadi.

Suqrot yana quyidagi iqtibos keltirtiriladi

سقراط: ينبوع فرح الانسان القلب المعتدل، وينبوع فرح العالم الملك العادل، وينبوع حزن الانسان القلب المختلف المزاج، وينبوع حزن العالم الملك الجائر  
[5, 537-b].

Suqrot: Inson quvonchining manbai — muvozanatli qalbdır; olam quvonchining manbai — adolatli podshodir. Inson g‘amining manbai — notinch (o‘zgaruvchan) qalbdır; olam g‘amining manbai — zolim podshodir.

Yuqoridagi iqtibosdan mo‘tadillik insonga quvonch bag‘ishlaydi, tez o‘zgaruvchan qalbning esa quvonchi uzoq davom etmaydi, bunday insonda beqarorlik kuzatilib, inson g‘amining sababchisi bo‘ladi degan ma’noni chiqarish mumkin. Shuningdek, demokratiya tushunchasi Yunonistonda paydo bo‘lgan va hozirgi ko‘rinishdagi demokratiyaning ilk xususiyatlari yunon madaniyatida ko‘zga tashlansada, Suqrotning fikricha hukmdorning odilligi dastlabki o‘rinda turadi. Hukmdorlar adolati orqali olamga quvonch bag‘ishlaydi. Zolim podsho esa insonlarga zulmi orqali bir-biriga ko‘chib yuruvchi g‘amning sababchisiga aylanadi.

Ilm va hikmatning qiymati haqida Zamaxshariy Suqrotdan yana bir iqtibosni beriladi:

سقراط: سوءاً لمن أعطي الحكمة فجزع لفقد الذهب والفضة  
[5, 598-b]

Kimgaki hikmat berilgan bo‘lsa-yu, lekin oltin, kumushni yo‘qotishdan iztirob cheksa uning holiga voy.

Suqrotning hayotidan yana shunday misol keltiriladi:

لما ظهر موسى عليه السلام قال سقراط: نحن معشر اليونانيين أقوام مهذبون لا حاجة بنا إلى تهذيب  
غيرنا  
[5, 279-b]

Tarjimasi:

Muso payg‘ambar (alayhissalom) paydo bo‘lganida, Suqrot shunday dedi: Biz, yunonlar, odobli (tarbiyali) bir xalqmiz; boshqalardan tarbiya olishga muhtoj emasmiz.

Lekin, yuqoridagi hodisa tarixiy jihatdan noto‘g‘ri. Sababi, Muso alayhissalomning yashagan yillari haqida aniq ma’lumot bo‘lmasa ham taxminiy vaqti miloddan avvalgi XIII asrda deb qaraladi, Suqrot esa miloddan avvalgi V-IV asrda yashagan bu esa ular orasida bir necha asrlik farq borligini ko‘rsatadi. Muso alayhissalom va Suqrot dialogi sifatida ko‘rsatilgan bu suhbat bugungi tarixiy haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi.

Asarda Aristoteldan quyidagi iqtibos keltiriladi:

ارسطو طاليس: حركة الإقبال بطيئة، وحركة الإدبار سريعة، لأن المقبل كالصاعد من مرقة إلى مرقة،  
والمدير كالمقذوف به من علو إلى سفلى

[5, 598-b]

Aristotel: “Harakat qilishda erishish sekin, yo‘qotish esa tez bo‘ladi, chunki keluvchi odam pag‘onama pag‘ona ko‘tarilgandek harakat qiladi, ketuvchi esa yuqoridan pastga otilgan narsa kabi harakat qiladi.

Arastu inson yaxshi xulqqa erishish yo‘li sekin, bu yo‘lda mashaqqatlar borligini eslatadi. Ammo inson erishgan narsalarini yo‘qotishi tez bo‘lishi va u huddi yuqoridan pastga qulayotgan buyumga o‘xshatadi.

## XULOSA

Mahmud Zamaxshariyning “Rabi’ al-abror” asari muallif ilmiy merosining eng muhim didaktik asari bo‘lib, unda Sharq va G‘arb ilmiy muhitining uyg‘unlashgan axloqiy qarashlarini o‘zida jamlangan. Asarda yunon faylasuflaridan Suqrot, Galen, Aflotun va Aristotel kabi mutafakkirlarning hikmatlari, pand-nasihatlar islom dinining muqaddas manbalari bilan bog‘lagan holda iqtiboslar keltirildi

Zamaxshariy bu g‘oyalarni keltirar ekan, ularni faqat tarixiy yoki falsafiy ma’lumot sifatida emas, balki inson qalbi, aqli va odobini tarbiyalovchi manba sifatida ham ko‘rsatadi. Yunon faylasuflarining “adil podsho”, “mo‘tadil qalb”, “hikmat va boylik” haqidagi fikrlari orqali muallif axloqning umuminsoniy tabiatini ochib beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “Rabi’ al-abror” asarida Zamaxshariy yunon falsafasining axloqiy merosini islomiy axloqshunoslik bilan uyg‘unlashtirgan va uni musulmon o‘quvchiga tushunarli, ma’naviy jihatdan boy shaklda yetkazgan. Shu jihatdan asar Sharq va G‘arb madaniyatlari o‘rtasidagi falsafiy ko‘prik vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, “Rabi’ al-abror” nafaqat o‘z davrining axloqiy ensiklopediyasi, balki turli falsafiy an‘analarni uyg‘unlashtirgan, umuminsoniy hikmatlar manbai sifatida bugungi kunda axloqshunoslar tomonidan qadrlanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To‘rayev L.A. Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosida “Rabi’ al-abror” asari muhim manba sifatida. – Toshkent: TDSHU, 2022, 154 bet.
2. O‘zR FA SHI. Q.№ 2384.
3. To‘raev, L. A., & Nizomova, N. Q. (2023). Sharq allomalarining dunyoqarashida ta’lim-tarbiya masalasi. *International scientific journal of Biruni*, 2(1), 16-20.
4. (٤٦٧-٥٣٨هـ)، ربيع الأبرار ونصوص الأخبار، تحقيق عبد الزمخشري، أبو القاسم محمود بن عمر الأمير مهنا، الجزء الأول، بيروت: مؤسسة الأعلمي للمطبوعات، ١٤٠٠هـ.
5. To‘raev, L. A., & Nizomova, N. Q. (2021). Mahmud Zamaxshariyning “Rabi’al-abror” asarida ijtimoiy, axloqiy va falsafiy masalalar talqini. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 2), 266-273.
6. Turaev, L. A. (2020). Depiction of the cities Khorezm and Samarkand in the Work of “Rabi'Al-Abrar”. *Current research journal of history*, 1(01), 10-14.
7. Turaev, L. A. Some remarks on the naming of Mahmud Zamakhshari's “Rabi'ul-Abrar”.
8. Turaev, L. A. (2020). Codicological analysis of “Rabi’ul-Abrar” copies in Uzbekistan funds. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 442-445.
9. Тўраев, Л. А., & Тўраев, Ф. Х. (2025). Махмуд Замахшарий асарлари ва уларнинг туркумланиши. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 269-280.